

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
rektori Sh.A.Boymuradov

20 22 yil « 02 » 07

Ro‘yxatga olindi:

№ Bakalavriat

D.-60910200-2.08

**NEFROLOGIYA VA GEMODIALIZ ASOSLARI
O‘QUV DASTURI
(Tanlov fan)**

Bilim sohasi:	900 000	–	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	910 000	–	Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishi:	60910200	–	Davolash ishi

Toshkent -2025

Fan/Modul kodi		O'quv yili	Semestr	ECTS-Kreditlar	
NGAS2701		2025-2026	7	2	
Fan/Modul turi		Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Tanlov		O'zbek		6	
1.	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Nefrologiya va gemodializ asoslari	30	30	60	
2.	I. Fanning/Modulning mazmuni O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib va orttirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi				
	1.1. Fanni/Modulni o'qitishdan maqsad – ayrim keng tarqalgan buyrak kasalliklarini to'g'ri tashxislash, qo'yilgan tashxisni asoslash, ularning asoratlari va standart davolash tamoyillarini qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish. 1.2. Fanning/Modulning vazifalari – - ayrim buyrak kasalliklarining etiologiya, patogenez, tasnifi, klinik ko'rinishlari, asoratlari, kechishi, asoratlari, davolash va profilaktikasi bo'yicha bilimlarni takomillashtirish; - bemorlardan anamnez yig'ish, turli tizimlar bo'yicha, klinik tekshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish; - buyrak kasalliklarining asosiy diagnostik mezonlarini aniqlay olishni o'rgatish; - taxminiy, klinik tashxislarni asoslashni o'rgatish; - bemorlarni tekshirish rejasini tuzish, shifokor taktikasi va davolashni o'rgatish; - laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini interpretatsiya qilishni o'rgatish;				

- qiyosiy taqqoslash va yakuniy tashxisni asoslay bilishni o'rgatish
- buyrak kasalliklari turli variantlarida davolashni tavsiya eta olish va shoshilinch holatlarda tezkor yordam berishni o'rgatish.

II. Fan/Modul o'qitilishining natijalari

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- eng ko'p tarqalgan buyrak kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi klinikasi, asoratlarini bilish, qiyosiy taqqoslash, kasallikka tashxis qo'yish, tekshiruv va kompleks davolash rejasini tuzish;
- umumiy va ekskretor urografiya, buyrak arteriyalari angiografiyasi qorin bo'shlig'i punksiyasi **to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi**;
- bemorlardan anamnestik ma'lumotlarni yig'a bilish (kasallik va hayot anamnezi), fizikal tekshiruv usullariga asoslangan holda bemorlarni organlar bo'yicha umumiy ko'rikdan o'tkazish;
- taxminiy tashxisni shakllantirish va asoslash, bemorni tekshirish rejasini tuzish;
- umumiy klinik laborator tekshiruvlar natijalarini: umumiy qon va peshob tahlili, qonning bioximik tahlili, Zimnitskiy va Nechiporenko sinamalarini peshobning bakteriologik ekma natijalarini interpretatsiya qila olish;
- klinik va yakuniy tashxis qo'yish va asoslash, rejali davolashni tavsiya etishni, kasallik asoratlari va ularning oldini olishni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- bemorni anamnestik so'rov va ko'rikdan o'tkazish;
- qonning umumiy, bioximik, immunologik, serologik tahlili, umumiy va ekskretor urografiya, ichki a'zolar UTT tekshiruvi natijalari asosida xulosa qilish;
- kasallik tarixini to'g'ri yuritish kabi **malakalarga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.**

III. Asosiy nazariy qism

3.1. Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati:

1-mavzu. Moddalar almashinuvi nefropatiyasi: Diabetik nefropatiya.

Moddalar almashinuvi nefropatiyasi haqida tushuncha. Qaysi holatlar kiradi. Qandli diabetning buyraklar funksiyasiga ta'siri. Diabetik nefropatiya ta'rifi, etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash, profilaktika.

2-mavzu. Biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklari va revmatoid artritda buyraklar zararlanishi.

Biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklari va revmatoid artritda buyraklar zararlanishi haqida tushuncha. E'tiologiyasi, patogenezi, klinikasi, differensial

diagnostikasi, diagnostikasi, davolash, profilaktikasi.

IV. Amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

1-mavzu. Moddalar almashinuvi nefropatiyasi: diabetik nefropatiya.

Moddalar almashinuvi nefropatiyasi haqida tushuncha. Qaysi holatlar kiradi. Qandli diabetnig buyraklar funksiyasiga ta'siri. Diabetik nefropatiya ta'rifi, etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash, profilaktika.

2-mavzu. Moddalar almashinuvi nefropatiyasi: Podagrik nefropatiya

Moddalar almashinuvi nefropatiyasi haqida tushuncha. Qaysi holatlar kiradi. Podagraning buyraklar funksiyasiga ta'siri. Podagrik nefropatiya ta'rifi, etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash, profilaktika.

3-mavzu. O'tkir va surunkali interstitsial nefrit

O'tkir va surunkali interstitsial nefrit ta'rifi, etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash, profilaktika.

4-mavzu. Biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklari va revmatoid artritda buyraklar zararlanishi.

Biriktiruvchi to'qima diffuz kasalliklari va revmatoid artritda buyraklar zararlanishi haqida tushuncha. E'tiologiyasi, patogenezi, klinikasi, differensial diagnostikasi, diagnostikasi, davolash, profilaktikasi.

5-mavzu. Ichki kasalliklarda buyrak o'rinbosar terapiyasi.

Ichki kasalliklarda buyrak o'rinbosar terapiyasi ta'rifi. Gemodializ, peritoneal dializ, buyraklar transplantatsiyasi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar, grafik organayzerlar qo'llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

V. Fanni/Modulni o'qitish davomida egallanadigan kompetensiyalar va amaliy ko'nikmalar.

5.1. Fan/Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

Tibbiy bilimlar (TB) egallash:

TB.1- Odam organizmining tuzilishi va funktsiyalari, normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (hamma yosh toifalari).

TB.2- Kasalliklarning qiyosiy tashxisini bilish.

TB.3- Organizm struktur-funksional o'zgarishlari asosida kasalliklarning xavf omillari, salomatlik determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish.

	TB.4- Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish TB.5- Dalillarga asoslangan tibbiyot doirasida davolash tamoyillarini bilish TB.6 - Tanlangan terapiyaning maqsadli asoslarini bilish TB.7- Klinik protokollar va tavsiyalar asosida bemorlarga yordam ko'rsatish qoidalarini bilish TB.8- Kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish TB.9- Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, chekish va semizlik bilan kurashish va b.) va aholiga sog'lom hayot tarzi haqida malumot berishni bilish TB.10- Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o'zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar). Amaliy ko'nikmalar va klinik fikrlash (AK) Bemorlarni olib borishda amaliy va diagnostik ko'nikmalarni namoyon qilish: AK.1- Bemorlarning shikoyatlari va anamnezini yig'ish AK.2- Bemorlarning obektiv ko'rigini o'tkazish, aniqlangan o'zgarishlarni tahlil qilish (hamma yosh toifalari). AK.3- Kasalliklarning differentsial tashxisini o'tkazish AK.4- Diagnostik (laborator-instrumental) tekshiruv usullarini tavsiya qilish va natijalarini tahlil qilish AK.5- Rasmiy qabul qilingan kasalliklarni kodlash tizimlari talablariga muvofiq dastlabki va klinik tashxisni shakllantirish AK.6- Bemorni olib borish va davolash rejasini tuzish AK.7- Kasalliklarga tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya qilishda "dalillarga asoslangan tibbiyot"ning asosiy tamoyillarini qo'llash Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (ShM) Bemorlar, oila, hamkasblar va jamoa a'zolari bilan samarali muloqot: ShM.1- Profilaktika, diagnostika va davolash maqsadlariga erishish uchun bemorga yo'naltirilgan samarali muloqot va shaxslararo muloqot ko'nikmalaridan foydalanish va namoyish etish. ShM.2- Etika meyorlariga rioya qilgan holda bemorlar va ularning yaqinlariga qo'yilgan tashxis va davolash rejasini aniq tushuntirish ShM.3- Bemorlar va ularning oilalariga malumot berish, maslahat berish va o'rgatish ShM.4- Jamoada, hamkasblar bilan, boshqa yo'nalishdagi mutaxassislar bilan muloqot qilganda ShM ko'nikmalarini qo'llash
--	---

Etika va empatiya (EE)

Bemorlar va aholi bilan o‘zaro munosabatlarning axloqiy tamoyillariga, empatiyaga yo‘naltirilgan aholiga xizmat ko‘rsatish amaliyoti:

EE.1- Jinsi, yoshi, millati, madaniyati, dini, nogironligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqalardan qat’i nazar, teng, xolis munosabatni va hurmatni namoyish etish

EE.2- Insonparvarlik, empatiya, hamdardlik, sezgirlik hamda bemorlar va ularning qonuniy vakillariga nisbatan hurmat ko‘rsatish.

EE.3- Mustaqillik, maxfiylik, adolat, tenglik va xabardor qilingan rozilikka oid axloqiy tamoyillarga sodiqlikni namoyish qilish.

Shaxsiy rivojlanish (ShR)

Tibbiy amaliyot uchun muhim bo‘lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni namoyon qilish:

ShR.1- Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o‘zining funksional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish.

ShR.2- Qarorlarni qabul qilishda hamkasblarda ishonch hissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish

ShR.3- Odob-ahloq me‘yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o‘z imidji ustida ishlash hamda nizoli holatlarni boshqara olish.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR)

Uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga tarafdorlik va qobiliyatni namoyon etish:

UKR.1- Shaxsiy kompetentlik doirasida o‘z bilimi, klinik ko‘nikmalarini yangilab borish.

UKR.2- Shaxsiy ehtiyojga ko‘ra malakasini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish uchun maqsad va strategiyalarni ishlab chiqish

UKR.3- O‘z bilimi va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish

UKR.4- Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun xalqaro ilmiy, dalillarga asoslangan bazani, ilmiy tadqiqot natijalarini topish, baholash va qo‘llash

UKR.5- Axborot resurslarida ishlash, yangi bilimlarni tahlil qilish va kasalliklarni tashxislash, davolash, oldini olish protokollari hamda SOM (standart operatsion muolajalar) protokollarini o‘z amaliyotiga joriy etish. Dalillarga asoslangan texnologiyalar yoki xizmatlarni tatbiq qilish.

Jamoat salomatligi (JS)

Bemorlar va aholiga optimal xizmatni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi va sog‘liqni saqlashni tashkil etish to‘g‘risidagi

bilimlarni namoyish etish.

JS.1- Sog'liqqa ta'sir qiluvchi omillarni, shu jumladan tarkibiy va ijtimoiy determinantlarni, aholi o'rtasida kasalliklar, asoratlar va nogironlikni oldini olishni aniqlash va tegishli vazirlik va idoralarni xabardor qilish.

JS.2- Sog'liq muammolarini, xavf omillarini, davolash strategiyasini va profilaktika choralarini aniqlash uchun epidemiologiya va biotibbiyot statistikasi tamoyillarini bilish.

JS.3- Sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni parvarish qilishni muvofiqlashtirish uchun multidissiplinar jamoada ishlash.

JS.4- Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli va jamoaviy yondashuvdan foydalangan holda klinik amaliyotni doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirok etish.

JS.5- Bemorlarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik choralarini ko'rish.

JS.6- Bemorlarga va/yoki aholiga parvarish va xizmat ko'rsatishda resurslar va moliyaviy xarajatlarini hisobga olish hamda xavf va foyda nisbatini tahlil qilish.

JS.7- Profilaktik tadbirlarni integratsiya qilish, kasalliklar haqida ma'lumot berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish

5.2. Fan/Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Surunkali buyrak kasalligida koptokchalar filtratsiyasi tezligini hisoblash(CKD-EPI bo'yicha).
2. Nefrotik krizda shoshilinch yordam ko'rsatish

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular ro'yxati:

1. Koptokcha filtratsiya tezligi. Buyrak biopsiyasi
2. Buyrak kasalliklarini zamonaviy rentgenologik va kompyuterli tomografiya tekshirish usullari
3. Nasliy nefropatiyalar: buyraklar polikistozi, Gudpascher sindromi, Alport sindromi
4. Tizimli vaskulitlar(tugunchali periarterit, nospetsifik aortaarterit, Vegener granulomatozi)da buyraklarning zararlanishi xususiyatlari.
5. O'tkir buyrak yetishmovchiligi. Nefrotik kriz.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Fan bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- hisoblash-chizma mustaqil ishini bajarish;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish; berilgan mavzuni chuqur o'rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;
- kasallik tarixini himoya qilish, ekspertiza bayonnomasini tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash; amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Fan bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, bolalarni yoshi va sog'lig'iga bog'liq ovqatlantirish tamoyillari haqida suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

-o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish;

-fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etish;

- mustaqil ta'limni topshirish muddati o'tgach vazifalar qabul qilinmasligini, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l

	qo‘ymasligi doimo yodda tutish; -kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish.
3.	VII. Fanni/Modulni o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari va metodlari • Interfaol o‘yinlar; • Seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • Keys texnologiya, muammoga asoslangan ta’lim (PBL, CBL, POL)
4.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, nazorat turlari bo‘yicha yozma, og‘zaki, test va OSKI topshiriqlarini muvaffaqiyatli topshirish.
5.	IX. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar, hamda axborot manbalari ro‘yxati 9.1. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati: 1. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar. Darslik. Toshkent. Turon Zamin Ziyo nashriyoti. 2018 y. 2. Усанова А.А., Гуранова Н.Н.. Нефрология. Учебное пособие. М.: ГЭОТАР-Медиа.2019 г. 3. Скворцов В.В., Тумаренко А.В. Клиническая нефрология. Учебное пособие. Санкт-Петербург Спец.Лит.2017 9.2. Qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati: 1. Шилов Е.М., Смирнов А.В., Козловский Н.Л. Нефрология. М.: ГЭОТАР-Медиа. 2019 г. 2. Сиповский В.Г., Хмельницкая Н.М., Смирнов А.В. Методические основы патоморфологической диагностики неопухолевой патологии почек. СПб.: ООО «ИПК «Береста».2014 г. 3. Мухин Н.А., Андросонова С.О., Андрусев А.М.Национальное

- руководство. Нефрология. ГЕОТАР-Медиа. 2016 г.
4. Хубутя М.Ш. Трансплантология. Учебник. М.: ГЭОТАР-Медиа. 2016
 5. Robert Stephen Brown. Clinical handbook of Nephrology. // Elsevier ebooks+ 2022. 331 p.
 6. Рябов С.И., Ракитянская И.А. Нефрология. Том 1. Монография. СПб. 2013 г.
 7. Dombros N. et al European Best Practice Guidelines for perinone dialysis // Nefrol Dial transplant. – 2016. – Vol.26 (11). – P. 1-36.
 8. Richard J. Johnson, Jurgen Floege, Marcello Tonelli. Comprehensive clinical nephrology. 7- edition. // Elsevier. – 2024. 1547 p.
 9. Kasiske B.L., Zeier M.G., Chapman J.R. Практическое клиническое руководство KDIGO по ведению пациентов после трансплантации почки. 2018 г.
 10. Turner N.N., Lameire N., Goldsmith D.J. et al. Oxford Textbook of Clinical Nephrology (4 ed.) - 3rd ed. // Oxford University Press, 2018.

9.3. Internet saytlari:

1. www.medportal.ru
2. www.era-online.org
3. www.e-library.ru
4. www.asn-online.org
5. www.ksn.or.kr
6. www.clinicalkey.com
7. www.onlinelibrary.wiley.com
8. www.springernature.com
9. www.scopus.com
10. www.medscape.org
11. <http://www.ahrq.gov/http://www.ahrq.gov/hiddenmenu>
12. <http://www.firstgov.gov/http://www.firstgov.gov/>
13. <http://www.avsc.org>
14. <http://www.rcog.org.uk/medical/greentopguide.html>
15. www.evrika.ru
16. www.Med-edu.ru
17. www.med-info.ru
18. www.journals.medi.ru
19. www.edu.uz
20. Cochrane <http://www.update-software.com/Cochrane/default.HTM>
21. PubMed, Medline - www.ncbi.nlm.nih.gov/PubMed

	22. Medconsult - www.mdconsult.com 23. http://diss.rsl.ru 24. http://search.ebscohost.com 25. www.apsneph.org 26. www.nephrology.edu.au
6.	Tuzuvchilar: Jabbarov O.O. - TDTU 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Tursunova L.D. - TDTU 2-son fakultet va gospital, nefrologiya va gemodializ terapiya kafedrasi dotsenti, PhD Xasanova M.A. - TDTU 2-son fakultet va gospital, nefrologiya va gemodializ terapiya kafedrasi assistenti
7.	Taqrizchilar: Ichki taqrizchi: Xamraev A.A. – Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-sonli ichki kasalliklar va endrokrinologiya kafedrasi mudiri, t.f.d., professor Tashqi taqrizchi: Abduraximova L.A - Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti. Klinik fanlar kafedrasi mudiri p.f.d
8.	Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat tibbiyot universitetining 05.06.2025 yildagi 1328-sonli buyrug‘i (buyruqning 2__-ilovasi) bilan tasdiqlangan. O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i  F.X.Azizova 1-son davolash fakulteti dekani  I.O.Otajonov